International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

IKKINCHI DARAJALI BO‘LAKLARDA IZHORLI QURILMANING O’RNI

Mardiyev Begali Xudoyqul o’g’li
(SamDU Urgut filiali maktabgacha ta’lim va pedagogika kafedrasi mudiri, dotsent)
mardiyevb @mail.ru

Annotatsiya

Bu maqolada izhorlash mazmunining ochilishi, xabar aktining aniqlanishi, aqliy yoki hissiy idrok haqida fikr yuritilgan. Turkiy tillar, masalan, ozarbayjon, gagauz kabi tillar qatori o‘zbek tilida shunday qo‘shma gaplar mavjud va amal qiladiki, ularda izhorlovchi predikat boshlang‘ich pozisiyada joylashishi haqida ma’lumotlar berilgan. Izhorli qurilmaning (Izhorli qurilma) tobe izhorlovchi qismida bo‘laklarga ajratilmagan tuzilmalar struktur jihatdan doimo muhim a'zolar – sub'ekt (ega) yoki ob'ekt (to‘ldiruvchi) pozisiyasidan birini egallaydi.

Kalit so’zlar: prepozision tip, sintagma, obyektli pozitsiya, eksplisit, implisit. izhorli qurilma, aqliy,hissiy idrok.

Izhorli qurilmaning yuqorida ko‘rib o‘tilgan tiplari ularda tayanch komponentlar gapning bosh bo‘laklari sifatida amal qilishi bilan xarakterlanadi. Bunday hollarning barchasida izhorlash, mazmunning ochilishi, xabar aktining aniqlashishi, aqliy yoki hissiy idrok, baho va shu kabilar gapning kommunikativ maqsadi hisoblanadi hamda uning asosiy semantik-grammatik mazmunini shakllantiradi. Shuning uchun bunday gaplarni to‘liq huquq bilan izhorli qurilma deb atash mumkin.

Ammo izhorlash xarakteridagi qurilmalar gapning ikkinchi darajali bo‘lagi pozisiyasini egallagan tayanch so‘z oldida mavjud bo‘lishi mumkin. Bunday gaplar endi izhorlashga taalluqli bo‘lmaydi, ularda izhorlash munosabati chekkada joylashadi va yetakchi sintaktik-grammatik mazmunning shakllanishida ishtirok etmaydi. Misollar:

Shayboniyxon Xo‘jand suvini kechib o‘tib, Shohruhiyani egallabdur, uning Piskentga yurishi rostmi, yolg‘onligini bilmoq uchun Toshkentga odam yuborsak... (X.Sultonov.

«Boburiynoma»).

Selim Zelixonga e'tiroz bildirsa bu holi voy bo‘lishini yaxshi bilganligidan yerga qarab indamay o‘tiraverdi (T.Malik. «Shaytanat»).

... mening bolam degandan keyin, mening bolam (G‘.G‘ulom).

Izhorli qurilma ko‘rib o‘tilgan holatlarda bir yaxlitlik sifatida ikkinchi darajali bo‘lak pozisiyasini egallaydi. Bunda u gapga o‘zining cho‘qqisi – izhorlovchi predikati bilan qo‘shiladi, qolgan barcha so‘zlar, jumladan, tobe qism uning predikatiga qo‘shiladi. Gap tarkibiga qo‘shilishning bunday sharoitida ikkinchi darajali bo‘lak holatida IQning (Izhorli qurilma) prepozision tipi javob beradi. Odatda, tobe sintagma obyektli pozisiyani egallaganda nutqning o‘timli fe'llari predikati sifatida idrok, bilim va tafakkur ishtirok etadi, tobe qismning o‘z predikati bilan formal aloqasi usullari haqida gapirganda IQ sub'ektlarida, nutq fe'llarida tobe predikatning shaxsliligi saqlanishi mumkin va bunda aloqa analitik hisoblanadi, fe'lning qolgan semantik tiplarida aloqaning morfologik-sintetik turi kuzatiladi.

Shunday qilib, mazkur bo‘limda qarab chiqilgan IQ strukturalarining umumiy struktur-semantik tasnifida aloqaning sintetik yoki analitik tipli pripredikativ-ob'ektli IQ prepozision tipining o‘ziga xos ko‘rinishlari (kommunikativ) o‘rin egallaydi.

Ushbu bobning ko‘rib o‘tilgan bo‘limlarini tashkil qiluvchi materiallar tahlilidan ma'lum bo‘ladiki, IQning tobe izhorlovchi qismida bo‘laklarga ajratilmagan tuzilmalar struktur jihatdan doimo muhim a'zolar – sub'ekt (ega) yoki ob'ekt (to‘ldiruvchi) pozisiyasidan birini egallaydi. Bu ikkala qism ham turkiy tillardagi gapda so‘z tartibi qonun-qoidasiga ko‘ra kesimdan (predikatdan) oldin keladi. Xullas, shu nuqtai nazardan prepozision IQlar sintaktik tuzilmalarning klassik tipi hisoblanadi.

Ammo boshqa turkiy tillar, masalan, ozarbayjon, gagauz kabi tillar qatori o‘zbek tilida shunday qo‘shma gaplar mavjud va amal qiladiki, ularda izhorlovchi predikat boshlang‘ich pozisiyada (boshlang‘ich pozisiyalardan birida) bo‘ladi, tobe qism esa predikatdan keyin keladi, unga nisbatan postpozisiyada joylashadi. Bunday postpozision IQlarning muhim xususiyati shundaki, asosiy (izhorlovchi) predikat doimo finit shaklda keladi. Bu pozisiyani finit shaklda bo‘lgan (ba'zi hollardan tashqari hamma vaqt; istisnolar haqida quyida ma'lumot beriladi) tobe qismning predikati egallaydi. Misollar:

Bilmadim. taqdir uning va mening peshonamga nimalar yozganikin?

(G‘. G‘ulom).

Esimda bor, sigir sog‘ayotgan yoki o‘choqboshida ovqat pishirayotgan paytlarimda ko‘cha tomondan ishdan qaytayotgan Kenjaning ovozi kelardi (Sh.Rashidov).

Yodingizdamu, Shayboniydek purtajriba lashkarboshi Saripul urushinda ne-ne ulug‘ beklaridan, ne-ne sodiq navqironlaridan judo bo‘lgan edi? (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Eslaringdami, vinzavodni kasod qilinglar va sotuvga qo‘yilgandanoq harakatlaringni qilinglar, degandi (T.Malik. «Shaytanat»).

Bosh bo‘lak predikati, umuman butun bo‘lak birgalikda tinglovchining vaziyatga kirishishiga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan misollarda bu oldingi planga taalluqli (bu yerda «eslamoq» predikatining ko‘p qo‘llanishi). Ammo bu hozirgi reja holatiga ham tegishli, bunday hollarda odatdagi «bilmoq» predikatlari xos:

No‘yon Ko‘kaltoshning favtining xabarini, bilasanmi, podshohga kim yetkazdi? (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Bilasanmi, hayotning bu formulasi juda qadimiy... Odamizod yaralgandan beri uning bir harfi ham o‘zgarmadi (T.Malik. «Shaytanat»).

Begim, ma'lumingizki, bu tog‘liq yerlarda qish faslida tun uzoq, kunduzi

qisqaroq...(X.Sultonov. «Boburiynoma»).

1) pozisiyaning o‘rni remaning shakllanishida asosiy omil ekanligi Ye.A.Poseluevskiy va G.S.Pyurbeev R.G.Sibagatovning kitobiga yozgan taqrizida ta'kidlangan.

Aytinglar, otam sizlarga nima yomonlik qilganlar? (K.Yashin).

- Begim tayinlik navkarlardan eshitdim, qo‘shinning boshida o‘zingiz tursangiz askarlar jahdlaridan aslo qaytmaydurlar (X.Sultonov. «Boburiynoma»).

Anvar o‘ylaganidek, onasi darvozaxonada, nimqorong‘ida unga intizor bo‘lib turgan ekan, bag‘riga bosh qo‘ydi (T.Malik. «Shaytanat»).

Misollarning har ikki guruhida ham izhorlovchi asosiy qismning shunday struktur-grammatik xususiyati, unda birlikda yoki ko‘plik sondagi II shaxsga bevosita murojaat (misol, 3 dan boshlab) ko‘zga tashlanadi. Agar 1- va 2-misollarga shu nuqtai nazardan qaralsa, bilmadim, esimda bor predikatlari ham tinglovchiga mo‘ljallangan va unga to‘g‘ri, eksplisit emas, balki yashirin, implisit murojaatni qamrab olgan.

Aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkin: ifodada tema (eskilarni) pozisiyasini egallash bilan izhorlovchi predikat va asosiy qism sharhlashning umumiy semantikasi tinglovchiga (tinglovchilarga) eksplisit yoki implisit murojaatga qo‘shiluvchi vaziyatga kirish tufayli ma'lum matn hosil qiluvchi rol' o‘ynaydi.

O‘zaro olmosh bilan bog‘langan IQlar orasida tobe qism postpozision joylashgan podtipga nisbatan keng tarqalgan, bunda olmosh antisip vazifasini bajaradi, ya'ni olmoshning asosiy vazifasi o‘zidan keyingi so‘zning ma'nosiga urg‘u berishdir:

Shuni aytib qo‘yay, kimsan Sodiqjon boyvachchadan sovchi keldi (K.Yashin).

Shuni yaxshi bilingki, Shohimardon biz uchun eng muqaddas joy (K.Yashin).

Shunisi diqqatga sazovordirki, «Dukchi Eshon» to‘g‘risida o‘sha zamonning progressiv demokrat shoirlarning ko‘plari ham salbiy fikrdadirlar (G‘.G‘ulom).

O‘zbek tilida IQning tobe qismi prepozisiyali tipi va postpozisiyada joylashgan asosiy qismda o‘zaro bog‘lanishli – ajratuvchi olmoshli qism kam uchraydi. Olmosh bu yerda anaforik rol' o‘ynaydi (oldingi so‘zga ko‘rsatma):

Nima deyayotgan bo‘lsam shuni eshityapsiz (K.Yashin).

No‘yon suvga cho‘kdimi yoki tubsiz jarga quladimi, buni bilib bo‘lmas edi, begim (X.Sultonov. Boburiynoma). Boray desa uni bilmaydi, qolay desa uni bilmaydi.

Misollardan ma'lum bo‘ladiki, shu olmoshi mazkur vazifada kelsa, anaforik vazifada boshqa olmosh kelishi mumkin.

Tobe qismning asosiy qism bilan shakliy aloqasi usullariga kelsak, asosiy vositadan - o‘zaro bog‘lanishli bo‘lgan olmoshdan tashqari, bu yerda, asindetik joylashish bilan bog‘lovchi aloqa usullari -ki bilan va tobe predikatning morfologik mo‘ljallangan shakllari usullari qo‘llaniladi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi IQlar sintaktik sinonimiyasini qo‘llanilgan prinsiplar asosida ko‘rsatilgan pozisiyada o‘rganish (to‘ldirishga muhtoj) tugallangan deb hisoblab bo‘lmaydi. Belgilangan ko‘plab masalalar kelgusida o‘zining jiddiy tadqiqini kutmoqda.

Adabiyotlar

1. Грамматика азербайджанского языка (Фонетика, морфология и синтаксис). – Баку: Элм, 1971. – 415 с.
2. Покровская Л.А. Синтаксис гагаузского языка. – М.: Наука, 1978. – 203 с.
3. Поцелуевский Е.А., Пюрбеев Г.Ц., Рец. на кн.: Р.Г.Сибагатов. Теория предикативности. (На материале татарского языка). – Саратов, 1964 «Совесткая

тюркология», – 1964, № 6.
4. Ўзбек тили синтактик қурилишининг характерли хусусиятларидан бўлган тўлиқсизлик хусусида қаранг: Қурбонова М., Сайфуллаева Р., Боқиева Г., Менглиев Б. Ўзбек тилининг структурал синтаксиси (ўқув қўлланмаси). – Т.: ЎзМУ, 2004.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1995. 102-103 – Б.
6. Mardiyev B.X. O'zbek tilida izhor gapli qurilmalarning funksional- semantik tahlili. Dissertasiya – Samarqand, 2021. – B. 165.